

## AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishida belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash hamda mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 30 yillik bayramini keng nishonlash maqsadida 2022-yilning 5-dekabr kuni soat 10:00da Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filialida **“Konstitutsiya - mamlakat taraqqiyotining huquqiy poydevori”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy maqsadi: Xalqimiz siyosiy tafakkurining noyob namunasi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatanimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch-osoyshta hayoti, fuqarolarimizning huquq va erkinliklari hamda manfaatlarining mustahkam kafolati sifatida yurtimizda bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashi borasida asosiy poydevor bo‘lib kelayotganligini, mamlakatimizda Konstitutsiyada belgilab berilgan qoida va tamoyillar negizida samarali milliy qonunchilik tizimi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllanib, hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgani, davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyati yuksalib, xalqimizning ongu tafakkuri tobora o‘sib borayotganini yosh avlodga yetkazish hamda Konstitutsiyaning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini keng targ‘ib etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbida qonunga hurmat, Vatanga mehr va sadoqat tuyg‘usini kuchaytirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish hamda Asosiy Qonunimiz qabul qilinganining o‘ttiz yillik sanasini keng nishonlash.

Ilmiy-amaliy konferensiya o‘zbek tilida o‘tkaziladi.

Ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy yo‘nalishlari:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mamlakatimizdagi islohotlarning yangi bosqichidagi o'rni;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – ta'lim va madaniyatni oshirishning asosi;
- Konstitutsiyaviy burch huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omili sifatida;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: inson manfaatlari va oilaviy munosabatlar;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlar masalasi.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida chop etish uchun yuboriladigan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan talablar:

Materiallar anjuman yo'nalishlariga oid dolzarb mavzularda bo'lishi, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib asoslantirilgan takliflar bo'lishi hamda ilmiy rahbar xulosasi bo'lishi shart;

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ishtirokchilarining ma'ruzalari, ilmiy jamoatchilik tomonidan taqdim etilgan maqola va tezislar to'plam shaklida nashr etiladi.

Maqola va tezislar to'plamiga ishtirokchilarning ilmiy maqola va tezislari **2022-yilning 20-dekabr kuniga qadar** [nozimakhon.sobirova@gmail.com](mailto:nozimakhon.sobirova@gmail.com) elektron pochta manzili yoki [https://t.me/Nozima\\_Muxtorxonovna](https://t.me/Nozima_Muxtorxonovna) telegram manzili orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, amaliyotchilar, advokatlar, oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, katta ilmiy xodim-

izlanuvchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalar, kursantlar maqola va tezislarni topshirishlari mumkin.

***Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ishtirokchilariga eslatma:***

- Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plamiga maqola va tezislarni o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi;

- Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plamiga yuborilgan maqola va tezislarni tahrir hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi va tahrirdan o'tmagan, talablar bo'yicha yuborilmagan maqolalar nashr etilmaydi;

- Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plam ko'rinishida chop etiladi;

- Mas'ul: Sobirova Nozimaxon (97 707 4344)

***Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plamiga taqdim etiladigan maqola va tezislarga qo'yiladigan talablar:***

- Maqola va tezislarni konferensiyaga yo'nalishiga oid dolzarb mavzuda, ilmiy va tugallangan fikrlarga asoslangan, taklif va tavsiyalar bilan taqdim etilishi;

- Maqola va tezislarni matnlari A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega bo'lishi;

- Maqola va tezislarni matni Word matn muharririda, Times New Roman shrifti, 14 kegel, satrlar oralig'i 1,5 intervalda bo'lishi;

- Manba va adabiyotlarga ishora asosiy matn ichida [1] ko'rinishida bo'lishi;

- Taqdim etilayotgan maqolalar hajmi 3 betdan 7 betgacha bo'lishi;

- Bitta maqola yoki tezisning mualliflari soni 2 tadan oshmasligi;

- Maqola va tezislarning sarlavha qismining birinchi qatorida uning nomi, ikkinchi qatorida muallifning familiyasi ismi va sharifi, muallifning ish joyi va lavozimi, uchinchi qatorida elektron pochta va telefon raqami ko'rsatilishi, keyingi qatordan bir qator tashlab annotatsiya va kalit so'zlar keltirilishi lozim.

## NAMUNA

### MAQOLANING SARLAVXASI KATTA XARFLARDA VA QALIN YOZUVDA

Abdulla Abdullaevich Abdullaev  
Ish joyi va lavozimi  
el.manzil: [a\\_abdullayev@gmail.com](mailto:a_abdullayev@gmail.com),  
tel: 00-000-00-00

**Annotasiya:** Maqolaning annotasiya matni (odatda 1 paragraf).

**Kalit soʻzlar:** kalit soʻzlar (5-6 soʻz).

Maqolaning asosiy tana qismi yoziladi. Maqolaning asosiy tana qismi yoziladi. Maqolaning asosiy tana qismi yoziladi [1]. Maqolaning asosiy tana qismi yoziladi. Maqolaning asosiy tana qismi yoziladi.

Maqolaning asosiy tana qismi yoziladi [2]. Maqolaning asosiy tana qismi yoziladi. Maqolaning asosiy tana qismi yoziladi. Maqolaning asosiy tana qismi yoziladi. Maqolaning asosiy tana qismi yoziladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Soliev S. Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Toshkent. Fan. 2020.
2. Exsonov M. Ilmiy maqola yozishning nazariy asoslari. Ta'lim va fan jurnali. №3 son, 28 bet.